

SAID AHMADNING “SAROB”, “BORSA KELMAS DARVOZASI”, “AZROIL O‘TGAN YO‘LLARDA” HIKOYALARI TAHLILI

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti assistenti*

Imomqulova Gulchehra Norboboyevna

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va
adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Olloyorova Farangiz Dilmurod qizi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyalar to‘plamining badiiy tahlili, “Qorako‘z majnun” asaridagi “Sarob” “Borsa kelmas darvozasi” “Oftob oyim” “Azroil o‘tgan yo‘llarda” kabi hikoyalar ham yoritib beriladi. Insonlarning qamoq lagerlaridagi og‘ir hayotlari haqqoniy badiiy tasvir vositalari bilan mahorat bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Fidoyilik tuyg‘usi, xotiralar, sadoqatlilik, vatan, ruhiyat, kechinma.

Abstract

In this article, the artistic analysis of "Korakoz Majnun" collection of stories by Said Ahmed, "Mirage", "Gate of no arrival", "Oftob Oyim", "Azrael on the roads" in the work of Karakoz Majnun are also included. will be illuminated. The difficult lives of people in prison camps are skillfully illuminated with realistic artistic means.

Key words: Sacrifice, memories, loyalty, country, spirit, experience.

Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyalar to‘plami asarida, yozuvchi o‘n to‘qqizdan ortiq hikoyalar kiritgan. Bu asarni avtobiografik asar deb ham aytishimiz mumkin, chunki bu asardagi ba‘zi hikoyalarda yozuvchining o‘zi ishtirok etgan. “Qorako‘z majnun” asari mustaqillik davrimizda yaratilgan asarlardan biridir. “Qorako‘z majnun” asarini yozishda yozuvchi boshidan kechirgan voqealarni yana qaytadan eslab yozadi. Bu yozuvchi uchun juda qiyindir.

Said Ahmad: ”U voqealarni yozmoq uchun xayolan qamoq lagerlariga borishim, o‘sha azob-uqubatlarni qaytadan boshimdan kechirishim kerak “-deydi. (1.42-bet).

Yozuvchi uchun lager hayotini yozish qanchalik azob bo‘lmasin, lager hayotiga oid xotiralarni, o‘sha mudhish hodisalarni qog‘ozga tushurishga jazm etadi. ”Borsa kelmas darvozasi“, ”Taqdir, taqdir muncha shafqatsizmi?“ ”Oftob oyim” kabi turkum hikoyalar shu tariqa yaratilgan. “Qorako‘z majnun” asarining birinchi hikoyasi

“Sarob” hikoyasi hisoblanadi. Bu hikoyada Said Ahmad qamoq lageridagi voqea - hodisalarni eslaydi. Said Ahmad “Sarob” hikoyasiga “Ota qarg‘ishi misoli o‘q-u oxiratda emas, shu dunyoning o‘zida nishonga tegadi” jumlasini epigraf qilib olgan.(1.10-bet).

Said Ahmad ijodida badiiy adabiyotning azaliy muammosi avlodlar silsilasi, otalar va bolalar muommosi alohida o‘rin tutadi.(1.5-bet).

“Sarob” hikoyasida ham ota va bola o‘rtasidagi muommolar aks ettirilgan.

“Sarob” hikoyasi lager qamoqxonasiga yangi mahbuslarning olib kelinishi bilan boshlanadi.”Bugun lagerimizga yangi mahbuslarni olib kelishdi, ko‘rinishidan ularni yangi deb ham bo‘lmasdi. Egnilaridagi kiyimlarga, yelka va tizzalaridagi raqamlarga qaraganda ko‘p yillardan beri lagerdan lagerga ko‘chib yurgan daydi mahbuslar ekanini darrov payqash mumkin edi.”(1.10-bet). Mana shu daydi mahbuslar ichida asar qahramoni Kimsan ham bor edi. Kimsanboy maktabda yaxshi o‘quvchilardan edi. U Stalin haqida yozilgan she‘rlarga juda ham qiziqardi. Otasi unga unaqa havoyi ishlarga qiziqma der edi. Shu qiziqishi tufayli o‘zi bilmagan holda otasiga tuhmat qilib qamalishiga sababchi bo‘lib qoladi. Kimsanning otasi Olimjon Raxmonov juda o‘qimishli kishilardan bo‘lgan. Tarix bilimdoni bo‘lgan bu odamni tarix o‘qituvchilari ustoz deb atashardilar. U inson hech kimga yomonlik qilmasdi. Hattoki, qamoqda ham indamasligi uchun uni mahbuslar indamas deb atashardi. Ushbu asarda yozuvchi bir bolaning shuxratparasligi uchun otasini qamoq jazosiga mahkum qilingani, o‘zining qamoqdagi og‘ir kunlarini yoritib beradi. Ushbu asarni har bir o‘quvchi o‘qiganida tasirlanmasdan o‘qish qiyin, hattoki yozuvchining o‘zi ham bu asarni yozish jaroyonida, yana o‘sha davrga qaytganday bo‘ladi, yana o‘sha qamoqdagi og‘ir hayot, aybsiz odamlarni jazolanishini yozuvchi uchun bu juda ham qiyin ishdir. Yozuvchi ushu asarni yozganda, o‘sha voqealarni qaytatdan eslab, yana qamalib chiqqanday bo‘ladi.

“Qorako‘z majnun” asaridagi “Borsa kelmas darvozasi” hikoyasi ham xuddi “Sarob” hikoyasi kabi qamoq lagerlarida bo‘lgan voqealar tasvirlangan. Bu hikoyada ham qamoqdagi qiyinchilik kunlari tasvirlangan. Yozuvchi ushbu asarni yozish jarayonini: “Mana, ”Borsa kelmas darvozasi”ga nuqta qo‘ydim. O‘rnimdan turayotganimda boshim aylanib o‘tirib qoldim. Besh kun kecha-yu kunduz uxlamay, ushbu xotirani yozdim. Go‘yo besh kun qaytadan qamalib chiqdim. “Sarob “ hikoyasiga ham nuqta qo‘yayotganimda shu ahvolga tushgandim”-deb esga oladi.

Vatan, burchga cheksiz sadoqat, fidoyilik tuyg‘usi, ayniqsa, “Oftob oyim” hikoyasida betakror -marsiyadek mungli ayni paytda, madhiya kabi mardona va mag‘rur yangraydi. Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” asaridagi “Oftob oyim “ hikoyasini o‘qish chog‘ida, har bir inson o‘zini tug‘ilib o‘sgan yurtini qanchalik qadrlashini bilib oladi. Har bir xalq, goh u o‘zbek bo‘lsin, goh yapon har kim o‘zining vatanini sevadi. Maqsud Shayxzoda aytganday :”Vatanni sevmolni, yurt otasiga

sadoqatni yaponlardan o'rganish kerak. Bu asar orqali yozuvchi ham yaponlarni o'z yurtini qanchalik qadirlashlarini, yaxshi ko'rishlarini tasvirlagan. Yozuvchining qamoq lageridagi og'ir hayoti, u bilan u yerda qanchadan qancha mahbuslar qiynalayotgani, o'sha mahbuslar orasida yaponiyalik mahbuslar ham bor edi.

Ushbu asarda yozuvchi Sobiq Sovet Ittifoqi hududida asir sifatida yashagan yaponlar haqida hikoya qiladi. Said Ahmad bilan yaponiyalik Dyun ismli mahbus bilan do'stlashadi. O'sha paytlarda yaponiyaliklarni o'zlari tug'ilgan yurtga qaytarib yuborishlari haqida aytib qolishdi, bu gaplarda yaponiyalik mahbuslar hammasi xursand edi, lekin bir mahbusdan tashqari, uning ismi Sudze edi. Dyun o'z yurtiga qaytayotganida juda ham xursand edi, endi u o'lsa ham armoni yoqligini Said Ahmadga aytardi. Dyun shu o'tgan o'n bir yil ona yurti, tug'ilgan diyori - Yaponiya xayoli bilan yashadi. U Said Ahmadga shunday derdi.

-Xayriyat, qonim yurtimga to'kiladigan bo'ldi, - dedi u allaqanday quvonch bilan.

-Jinni bo'ldingmi, yurtimga qaytay, uylanib, boshqalarday bearmon yuray deb niyat qilmaysanmi, ahmoq! - derdi yozuvchi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, yaponiyaliklarda shunday odat bor. Ular samuray bo'lgani uchun dushmanga tirik asir tushmasligi kerak. Asir tushish xavfi tug'ilgandayoq o'zini o'ldirishlari kerak bo'ladi. Lekin asar qahromoni Dyun o'zini xarakiri qilishga ulgirmagan, shuning uchun u - Vatanimdan qon qarizdorman derdi. Bu asarni o'qigan har bir o'quvchi yaponiyaliklar haqidagi haqiqatini bilib olishadi. O'z vatanini sevishni mana shu yapon xalqidan o'rganishi mumkin. Kyoko Nakayama aytganday: "Bu hikoyada insonning tuyg'ulari va ichki kechinmalari chuqur hissiyot bilan aks ettirilgan, shuningdek, unda hozirgi kunga kelib unutilayotgan an'analar ham yoritilgan".

Asardagi "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasini o'qigan har bir o'quvchi entikmasdan, hayojonlanmasdan o'qishi qiyindir. Bu asarni yozuvchi o'zbek xalqlariga bag'ishlaydi. "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasining boshlanmasida Sobiq sho'ro tergovchilari qo'lida azob chekayotgan yurtdoshlarimga bag'ishlayman - deb boshlaydi. Bu hikoya boshlanmasi kurash maydonida kurash tushayotgan palvonlar bilan boshlanadi. Asar qahramoni Jalol palvon yetmish yoshlarga borgan, ellik yildan beri kurash tushadi, shu paytgacha kuragi yer ko'rmagan palvonlardan biri. Asardagi yana bir qahromon bu Jalol polvonning o'g'li Qo'chqorvoy. Mana shu Qo'chqorvoy tufayli ko'p odamlarning boshiga og'ir ishlar tushadi. Mana shu Qo'chqorvoy tufayli qishloqda obro'-e'tibor qozongan Jalol palvonning boshi egilishiga sababchi bo'ladi.

Bu asardagi azroil Qo'chqorvoy hisoblanadi. Hikoyani ham "Azroil o'tgan yo'llarda" deb nomlanishi shunga bog'liq. Shu Qo'chqorvoy yurgan yo'llarda Jalol palvon ham yurib o'g'lini qilgan ishlarida xabar topadi, bechora, beayb insonlarga qilgan ishlarini ko'rib o'g'lidan nafratlanadi. Jalol palvon Buxoro kasalxonasida bemorlardan Qo'chqor haqidagi xabarlardan xabar topadi. Bemorlar Qo'chqor haqidagi

shunday gaplarni aytadiki:-O'sha padar la'nant ko'p ishlar qilib ketdi.Butun bir shaharni boqsa yetadigan boylik olib ketdi,o'sha itning bolasi.

-So'kinmay gapir ,-dedi duduqlqnadigan bemor arang gapirib.

-So'kinaman,nega so'kmas ekanman !U ablahning otasi eshak,onasi mochaxar!

Jalol palvonning vujud-vujudiga minglab igna sanchilgandek bo'ladi.U dunyoga kelib hali bunaqa haqorat eshitmagan edi. Tishini tishiga qo'yib chiqadi.(1.162-bet).

Bu gaplarni eshitish o'zbek otasi uchun juda og'ir hisoblanadi.Har bir ota o'g'li voyaga yetganda menga tirkak bo'ladi, menga yelkadosh bo'ladi deb niyat qiladi.Hech bir ota menga lanat olib kelsin deb farzandini voyaga yetgazmaydi.

Jalol palvon yana Qo'chqor to'g'risida gapirib qolmasin, deb asli kamgap odam bo'lishiga qaramay, uzundan uzun gap boshlardi. Lekin har doim gap aylanib Qo'chqorvoy bilan tugardi.Mana yana gap aylanib Qo'chqor haqidagi gapga ulanib ketadi. Jalol palvon yotgan xonadagi barcha bemorlar mana shu Qo'chqorning ishlaridan aziyat chekkan insonlardir. Ushbu asarda Sobiq sho'ro davrida oddiygina xalq tergovchilar qo'lida qanchalik qiynalganligi tasvirlangan.Qo'chqor ham qiyinchiliksiz pul topaman deb qanchadan qancha odamlarni umriga zomin bo'lgan.Birovning barmog'idagi uzukni,yana kimningdir ziragini olib qo'yardi.Bu Qo'chqor yaramas faqatgina odamlarni narsasiga emas, hattoki ayollarini ham majburan o'ziniki qilgan.

Jalol palvon mehmonga borganda yana o'sha Qo'chqor haqida gap boshlanadi.

-Palvon aka, xotinimning barmog'ini ko'rib hayron bo'ldingiz-a ?Bu -o'sha padarla'nat Qo'chqor tergovchining ishi. Men uylanganimda onam rahmatli barmoqlaridagi uzukni chiqarib ,kelinga:"Bolam, bu uzukni katta buvam taqqanlar , u kishidan keyin men taqqanman, endi siz taqing", deb xotinimning o'rta barmog'iga taqib qo'ygan edilar.Uzukning ikkita moshdek olmos ko'zi bor edi.U paytda xotinim ozg'in,barmoqlari ham qalamdek ingichka edi.Ikki bola tuqqandan keyin et qo'yib, semirib ketdi.Barmoqlari ham yo'g'lanib qoldi.U shu uzukni qirq yildan ortiq taqdi.Ammo qo'ldan qo'ymadi.Tong'ichimni uylantirganimda, xotinim kelinning qo'lga shu uzukni taqib qo'ymoqchi bo'ldi.U ancha urindi, barmog'idan chiqarolmadi.Uzuk go'shtdor barmog'i terisi orasida qolib ketibdi.Men qamalganimdan keyin ham ablah Qo'chqor tergovchi uyni obis qipti.Xotinimning barmog'idagi uzukka ko'zi tushib, shuncha urinibdiki, chiqazaolmapti.Oxiri uzukni ombur bilan qisib bor kuchi bilan tortibdi.Uzuk barmoqning terisini, go'shtlarini sindirib chiqibdi.Barmoq bo'g'inlari uzilib ketibdi.Hozir ko'rdingiz-ku,bitta barmog'ida jon yo'q, nto'rta barmoq orasida lattaga o'xshab osilib qolgan. Kir yuvolmaydi, xamir qorolmaydi, igna ushlasa, joni yo'q barmoq xalaqit beradi.

Gap nimadan boshlansa, oxiri Qo'chqor bilan tugardi.Jalol palvon Buxoroga kelganiga pushaymonlar yedi. Ming o'lib, ming tirildi.(1.168-bet).

Bechora Jalol palvonning ko‘nglidagi og‘ir hislarni boshqalar qayerdan bilsin, ko‘nglidagi dardlarni qaydan bilsin. Palvon yana biron oy turishiga ham rozi edi. Ammo sheriklarining gaplari uning jon-jonidan o‘tib ketyapti. Ertalab turiboq bismillosiga Qo‘chqorni “Padarla’nat”, deb so‘ishadi. Kechqurun yotishda ham o‘sha gap. Bu gaplarga qandoq chidaydi? “O‘sha ablahning padari menman, siz og‘izga olib bo‘lmaydigan uyat gaplar bilan so‘kayotgan onasi-mening xotinim”, deb aytolmasdi. (1.169-bet).

Bechora Jalol palvon uchun bu gaplar shunchalar qiyin gaplarki, hech bir ota o‘g‘li haqida bu gaplarni eshitishni xohlamaydi. Har bir o‘quvchi mana shu “Azroil o‘tgan yo‘larda” hikoyasini o‘qish chog‘ida ta’sirlanmasdan o‘qishi amrimaholdir. Undagi bo‘lgan voqealar, xalqimizga keltirgan zug‘mlar Qo‘chqor obrazi orqali tasvirlagan yozuvchi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyalar to‘plamida ko‘proq xotiralar va sho‘rolar davridagi illatlarning ochilishiga e‘tibor qaratilgan, insonlarning ruhiy kechinmalari, hissiyotlari mahorat bilan bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Said Ahmad. “Qorako‘z majnun”. “Sano -standart” nashriyoti T.: 2016-yil.
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent, Ma’naviyat, 2000. – 112 bet.
3. Normatov U. Istiqlol ilhomlari. Qarang: Qorako‘z Majnun. Hikoyalar. Qayta nashrga tayyorlovchi Nodira Said Ahmad qizi. – Toshkent, “Sino-standart”, 2018. – 272-bet.